

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРАЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“XXI АСР ПСИХОЛОГИЯСИ”
МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
АНЖУМАНИ
МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ**

**СБОРНИК СТАТЕЙ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ
"ПСИХОЛОГИЯ XXI ВЕКА"**

**DIGEST OF ARTICLES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE
"PSYCHOLOGY OF THE XXI CENTURY"**

**9 сентябрь 2021 й.
(онлайн конференция)**

БУХОРО - 2021 йил

- 104 КАХАРОВА Д.С., ХУДОЙБЕРДИЕВ Ш.Б. Аллоҳда элтиборга муҳтожлиги бўлган болаларга ташлим-тарбия беришда ўзига ҳос жабдатлари
- 107 КАХАРОВА Д.С. Ниқилона ташлимга жалб этилган болаларнинг сифф ўқувчиларни молашшида педагогик-психологик хуусувиётлари
- 109 КИЛИЧЕВ А.А., МИРЗАЕВА Ш.С. Теоретические основы формирования образа семьи у современной молодежи
- 112 ҚОДИРОВА Д. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг психологик омиллари
- 116 ҚОСИМОВА С.Б. Экстремал вазиятларда шахнинг стрессли ҳолати ва ҳуққ- ативор реакциялари
- 119 ҚОСИМОВ У.А. Масштабча ёш даври болаларда фикрлаш қобилиятини ривожлантиришнинг самарали йўллари
- 121 КУЛШЕВ Ё.К. Социально-психологические особенности ювенильного возраста
- 125 ЛАРИОНОВА Л.Н., АЗАРОВА Л.Н. К проблеме использования арт-технологий в формировании личности студентов
- 128 МАКСИМЕНКО С.Д. Актуальные вопросы использования гештальт-креативного метода психологического изучения личности
- 133 МАҚСАДОВА М.С., ОЧИЛОВА З.З. Болаларни сифф ўқитишнинг ўзига ҳос психологик хуусувиётлари
- 136 МУХАМЕДОВА Д.Г., САЛАХУТДИНОВА М.Н. Проблемы психологии потребителей образовательных услуг
- 139 МУХАМЕДОВА Д.Г., БОЙМИРЗАЕВА Д.Д. Психокоррекционная работа по снижению фрустрации у студентов
- 141 МУХАМЕДОВА Ш.М. Психосоциальная диагностика детско-юношеских спортивных команд
- 143 МУХТОРОВ Э.М. Врежлар қабий маҳорати туғилмасини ўрганишнинг услубий масалалари
- 146 NAZAROVA M.M. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik shaxsiyatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish
- 150 НАБНЕВА М. Роль семьи в общественном воспитании
- 152 НАЗАРОВ А.М., НУСРАТОВА М.Б. Спортчиларда психологик муҳофазани ривожлантиришнинг ўзига ҳос усуллари
- 154 НУРГАЛШЕВА У.С., НУРГАЛШЕВА А.М. К вопросу о цифровом психологе в образовании
- 158 НУРИДДИНОВА Х. Влияние снов на психику учащихся начальных школьников
- 160 НУРМАТОВА М. Ниқоҳ олдидан омилларнинг психологик хуусувиётлари ва уларни ниқоҳ мустиқамлигига таъсири
- 163 ОГНЕВА И.В. Проблемы трансформации личности
- 165 ОЛИМОВ Ш.Ш., ЖУМАЕВА М.А. Талабаларни яратган ёшданшуклар асосида инновацион фойдаланган тайёрлаш хуусувиётлари
- 170 ОЛИМОВ Л.Я., МАХМУДОВА З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг янги ёш бўлишининг ўзига ҳослиги
- 175 ОСТАНОВ Ш.Ш. Использование техники арт-терапии
- 178 ОСТОНОВ Ж.Ш. Ўсмирларда қонинг ҳуққ-ативорнинг асосий стратегиялари
- 180 ПЕРМИНОВА Л.А. Психологизация развития будущего педагога в процессе профессионального образования
- 183 ПОКЛАД И.Н. Психолого-педагогическое сопровождение развития творческой личности
- 186 ПОКЛАД И.Н. Психолого-педагогическое сопровождение развития творческой личности
- 190 RAHMONOVA D. Boshqa ta'limda innovatsiya klaster - fanlararo integratsiya va uzluksizlikning kafolati
- 192 RAJABOV A. Misiriy talayvur
- 196 РАХИМОВА А.К. Спизофобия: причины, симптомы, способы лечения

«MUSIQIY TASAVVUR»

Azamat Rajabov - Buxoro davlat universiteti

“Musiq ta’limi” kafedrasida katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Musiqa (yunoncha μουσική — ilhom parilari san’ati) — tovush san’atidir; musiqiy asarga nisbatan ham musiqa atamasi qo’llanishi mumkin. Musiqa (yun. mousiche — muzalar san’ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag‘ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (mas, ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi.

Musiqa psixologiyasi – psixologiyaning shunday sohasiki, u musiqaviy eshitish qobiliyati, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmikasini his qilish, sozni taktil (paypaslab) sezish, musiqaning anglanishi, yodda saqlanishi, ijro etilishi va undan bahramand bo‘lish kabi masalani qamrab oladi. Musiqiy iste’dod va zakovat o‘zining cheksiz imkoniyatlari, mo‘jizaviy tabiati bilan bizni hayratga soladi va maftun etadi.

Kalit so‘zlar: musiqa, ijodkorlik, psixologiya, madaniyat, hissiyot, tasavvur, ijrochilik, ritm.

Musiqa (yun. mousiche — muzalar san’ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag‘ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (mas, ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, Musiqa shaxsning irodaviy sifatleri (kat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf arboblari — Imom G‘azoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta’sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo‘lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiati bilan bog‘liqsir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g‘oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o‘zaro munosabatlari (taqqoslanish, to‘qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko‘ra Musiqa mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo‘lgan lirika Musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda ma’lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma’naviy ma’rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko‘pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o‘zaro etik va estetik ta’sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Nutq, tovushli signal berish va boshqa tovushli—ma’noli jarayonlar singari, musiqa ham muayyan ma’lumotlarni sadolar vositasida ifodalash imkoniyatiga ega. Jumladan, tovushlarning baland-pastligi, ingichka-yo‘g‘onligi, uzunqisqaligi, kuchliligi va boshqa vositalar yordamida

odamning ichki holatini ifodalash imkoniyati jihatidan musiqa nutqqa (nutq intonatsiyalariga) o'xshaydi. Ammo, san'at turi sifatida musiqa fakat ungagina xos bo'lgan xususiyatlar (mas, badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlashi, mazmun va shakl badiiy qiymat sifatida kasb etilishi, ayniqsa, musiqa tovushlarining muayyan musika tizimlarida tashkil etilishi) bilan nutkdan farq qiladi. Har bir alohida olingan musiqa tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega bo'lsada musiqa tovushlarining baland-pastlik munosabatlari lad tuzilmalarida, muvaqqat nisbatlari esa — musiqiy ritm va metrda o'z aksini topadi. Dunyoning aksariyat xalqlari musiqa madaniyati, jumladan, o'zbek musiqa folklori, an'anaviy musiqa va bastakorlik ijodiyotida lad asosini turli ko'rinishdagi diatonika tashkil etadi. Kompozitorlik Musiqada (ayniqsa, 20- asrda rivoj topgan yo'nalishlarda) diatonika bilan birga xromatika ham keng o'rin olgan.

Musiqada asosiy badiiy vosita — kuy (melodiya)dir. Musiqaning ogzaki an'anadagi (monodiya) uslublarida kuy badiiy obrazning yagona va tugal musiqiy ifodasi hisoblanadi. Ko'p ovoqli kompozitorlik yo'nalishlarda garmoniya, polifoniya unsurlari ham muhim o'rin egallaydi. Musiqa asaridagi kuy (mavzu)lar rivoji uning kompozitsiyasn (shakl)ni tashkil etadi. Musiqa shakli asar mazmunining moddiy tajassumi va vujudga kelish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musiqa asarlari shakliga muntazam takrorlanuvchi tarkib va unsurlar xos bo'lib, bular badiiy mazmundagi o'zgaruvchanlik, harakatchanlik kabi xususiyatlarga ma'lum darajada ziddir. O'zaro aloqa va birlik doirasidagi bunday dialektik ziddiyatlar musiqa asarini yaratish va ijro etish jarayonida hamisha xilma-xil ravishda o'z yechimini topadi. Turli xalqlar musiqa madaniyati va an'alarida musiqaning barkaror va beqaror unsurlarining o'zaro munosabatlari ham o'zgzachadir. Mac, an'anaviylik mezoniga asoslangan og'zaki yo'nalishdagi musiqa uslublarida muayyan badiiy mazmun, estetik qoidalar bilan birga musiqa asarlari shakliga badixago'ylik xususiyatlari, nomusiqaviy (asarning ijro etish vaqti, joyi, sharoiti kabi) holatlar o'z ta'sirini o'tkazadi. Individual badiiy obrazlarni ifodalashga qaratilgan yozma an'anadagi kompozitorlik san'ati asarlari esa ko'proq aynan musiqiy rivojlanish qoidalariga, ya'ni tugallangan, yaxlit va barqaror shakllarga asoslanadi. Shuning uchun, kompozitorlik musikada mazkur shakllarni ifodalashga hamda ob'yektiv holatda saqlashda asosiy omil bo'lgan nota yozuvi mu-him o'rin tutadi.

Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashklari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashula, dastgoh, cholg'u kuy, maqom yo'llari, konsert, miniatyura, romans va boshqalarda estetik ta'sir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar, o'z navbatida, diniy mussha, yoshlar musikasi, maishiy musiqa, ommaviy mussha, harbiy musika, kamer musiqa, simfonik mussha, xor musikasi kabi musiqa.turlariga birlashadi. Tari-xiy, milliy, mahalliy, shaxsiy (individual) musiqa uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang , ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o'ziga qamrab olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks ettiradi (qarang Avangardizm, Barokko, Klassitsizm, Og'zaki an'anadagi musika, Romantizm, Sentimentalizm).

Bastakor va kompozitorpar badiiy obrazlarni kengroq qamrashga intilishib, musiqa va boshqa san'at turlari qorishmasi (sintezi)dan foydalani-shadi. Aniq tushunchaga ega bo'lgan so'z, sahna harakati, kino tasviri va boshqa unsurlar bilan qorishiq musiqa asarining ifodaviy imkoniyatlari kengayadi (qarang Vokal musikasi, Kino musikasi, Rake musikasi, Teatr musikasi). Musiqa, shuningdek, boshqa san'at turi va janrlarida ham muxim rol o'ynaydi. Mac, opera janrida, o'zbek musiqali dramasi va komediyasida xonandalik, xor san'ati hamda orkestr musiqaschnk drama bilan

boglaydi. Balet va boshqa raqs shakllari ham uzining badiiy obrazlarini musiqa yordamida ifodalaydi.

Insonning musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (uquv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli uzgacha kurinishga ega bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va maxrratiga mos ravishda uzgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni uzlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega buladi.

Turli (kompozitorlik va og'zaki an'anadagi) uslublarda mussha ijrochiligi ahamiyati turlichadir. Professional yunalishdagi madaniyat tizimida musiqa ko'pincha badiiy asarlarni ijro etadigan san'atkorlar faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun musiqa ijrochi (sozanda, xonanda)larining aksariyati kompozitor va bastakorlarning haqiqiy hamkorlaridir. Ular ustoz-shogird munosabatlari jarayonida uzlashtirgan yoki nota yozuvi yordamida o'rgangan asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida talqin etadilar. Musiqiy folklor tizimida musiqa namunalari omma ongingning badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qo'shiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Musiqa ijrochiligi mussha cholg'ulari hamda inson ovoz k vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarida namoyon bo'ladi.

Musiqa ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi musiqa faoliyati ning boshka turlari — mas, musiqa tarbiyasi, musiqa ta'limi, i. t. (Musiqashunoslik), musiqiy tanqid va boshkalar bilan birga jamiyat musiqa madaniyati tizimini tashkil etadi.

B.V.Asaf'evning «kompozitor-ijrochi-tinglovchi» fikriga tayanib, musiqa psixologiyasini quyidagi asosiy yo'nalish va jabhalarga ajratish mumkin: ijodkorlik, ijrochilik, musiqiy idrok. Shu tartibda keyingi yo'nalishlarga taqsimlab chiqish mumkin: ta'lim, musiqashunoslik, ma'rifiy, texnik, funksional, psixoterapevtik.

Musiqiy ijod psixologiyasi. Bu, asosan, bastakor va kompozitorlarning xayol, tasavvur, musiqa yaratish, yangi musiqiy asarni dunyoga keltirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatidir. P.I.CHaykovskiy mazkur jarayon va o'sha daqiqada paydo bo'luvchi ilhom haqida shunday degan edi: «Ilhom kelgan paytda, odatdagi holatdan chiqa boshlaysan. Bir fikr boshqa birini haydamoqchi bo'ladi. Notalarni yozib ulgurmayсан. Yangidan yangi musiqiy obrazlar paydo bo'ladi, bu tushuntirib bo'lmas ilhom tuyg'usidir». Kompozitor nota yozish bilan birga asarni tinglovchiga aniq etkazib bera oladigan ijrochini ham yaxshi tasavvur qilishi kerak.

Musiqiy ijrochilik psixologiyasi. Musiqa san'atidagi asosiy faoliyatlardan biri musiqa ijrochiligidir. Zo'r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg'ularini his etamiz yoki Yunonlar aytganidek, «katarsis» – ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz. Ijrochi – bastakor, kompozitor va tinglovchini bog'lab turuvchi halqadir. Musiqiy ijrochilik san'atidagi farqlar musiqiy cholg'uning o'ziga xos xususiyatiga, yakkaxon va ommaviy ijrochilik shakli, musiqiy asarning janri va shakliy xususiyatiga, qolaversa, birinchi o'rinda ijodiy individuallik, ijrochining professional tayyorgarlik va mahorat darajasiga bog'liq. Ijrochi uchun tinglovchi psixologiyasini tushunish va his etish, estetika talablari va auditoriya kayfiyatini to'g'ri anglash, muallif fikrini mohirlik bilan etkazib berish, auditoriyani o'z irodasiga bo'ysundirish, tinglovchida go'zal estetik hissiyotlarni uyg'otish, ijodiy kayfiyat juda muhimdir.

Musiqiy idrok psixologiyasi. Musiqani tinglab idrok etishni ham xuddi musiqa yozish va ijro etish kabi musiqa san'atidagi asosiy faoliyat turi deb hisoblash lozim. Qolaversa, tinglovchisiz musiqa san'ati o'z ma'nosini yo'qotadi va yashashdan to'xtaydi. Musiqa tinglash va uni idrok etish

musiqa faoliyatining shunday turiki, u bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Aytishlaricha, musiqani barcha eshitadi, biroq uni hamma ham tinglab idrok eta olmaydi.

Musiqani tinglash jarayonida idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq, unga to'g'ri proporsionaldir. Musiqiy asarning to'liq va chuqur idrok etilishi, shuningdek, kompozitor va ijrochi mahoratidan ham dalolat beradi. Ana shu tarzda, tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyatlari va tayyorgarligi bilan ajralmas holat deb xulosa qilish mumkin.

Musiqiy ta'lim, tarbiya psixologiyasi. Musiqa psixologiyasining mazkur tarmog'i psixologiya yo'riqlariga asoslanadi, o'quvchilar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi. Bu tarmoq o'quvchilarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi va musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga imkon beruvchi musiqa pedagogikasiga uzviy bog'liqdir. Musiqani eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritmi aniqlash, tekshirish kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqa psixologiyasida musiqiy zehn, iste'dod, qobiliyatlarni aniqlash, asarni o'rganish va uning ustida ishlash, konsertda chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilar va konsert jamoasi bilan o'zaro munosabatlar va boshqalar yuzasidan testlar ishlab chiqilgan.

Musiqiy ta'lim va tarbiya psixologiyasi ikki yo'nalishda o'rganiladi: bu maxsus musiqa ta'limi va umumiy musiqiy tarbiya yo'nalishlaridir.

Musiqashunoslik, musiqa targ'iboti va musiqiy ma'rifat psixologiyasi.

Musiqashunoslik va musiqiy ma'rifiy faoliyat musiqa san'atini o'rganish va targ'ib etishga yo'naltirilgan. Musiqa tarixchilari, tanqidchilari, nazariyotchilari, targ'ibotchilari, musiqa ma'rifati bilan shug'ullanuvchilar musiqa haqidagi fanlarni o'rganishadi, tahlil qilishadi, boyitishadi, rivojlantirishadi hamda klub, istirohat bog'lari, dam olish uylari, radio, televideniye, matbuot va boshqa joylarda omma o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borishadi. Mustahkam poydevorga tayanadigan musiqiy ijrochilik va ijodkorlik san'atni mukammallashtiradi. Musiqiy ma'rifat esa tinglovchilar auditoriyasini san'at, jahon musiqa madaniyatining durdonalari va Yutuqlari bilan tanishtiradi. Musiqa psixologiyasida

musiqashunosning intellektual va fikrlash faoliyatini hamda bastakor, kompozitor, ijrochi, tinglovchi o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganishga muhim o'rin ajratiladi.

Musiqa san'atining texnik ta'minoti va texnik jihozlanishi psixologiyasi. Bu yana bir faoliyat turi bo'lib, zamonaviy musiqa san'atini usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa san'atining texnik ta'minoti va texnik jihozlash sohasidagi mutaxassislar maxsus texnik bilimlar bilan bir qatorda musiqiy bilim, musiqa cholg'ularini yasash, ta'mirlash, sozlash, musiqa yozish va eshitish moslamalari bilan ishlashda kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalardan, musiqaviy spektakllar, konsertlar, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar postanovkasi va rejissurasidan xabardor bo'lishi kerak. Zamonaviy musiqa san'ati texnikaga, yangi texnologiyalarga tobora ko'proq tayanib bormoqda. Bu texnika bilan ham, ijodiy, ijrochilik, tinglovchilik faoliyati bilan ham bog'lanib ketadigan mutlaqo boshqa bir psixologiyadir.

Funksional musiqa psixologiyasi. Amaliy maqsadda musiqadan foydalanishni funksional musiqa deb ataluvchi yo'nalishda ko'ramiz. Uning yordamida kundalik maishiy hayotga estetika baxsh etiladi, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida bu turdagi musiqa mehnat samaradorligini oshirish uchun mehnat jarayonining jadal sur'atlarda olib borilishini ta'minlaydi. Mehnat jarayonida musiqadan foydalanish ish kuni davomida asabiy-ruhiy holatlarning xususiyatlari bilan bog'liq o'z qonuniyatlariga ega. Bunda mehnat jarayoni uchun kerakli ritmi o'rnatish, ish samaradorligini oshirish, ortib boradigan charchoqni chiqarish kabi ishlab chiqarish muammolarini hal etishga ko'maklashuvchi musiqani tanlash katta ahamiyatga ega.

Musiqiy psixoterapiya psixologiyasi. Sogʻlomlashtirish maqsadida foydalaniladigan musiqa musiqiy psixoterapiyada oʻrganiladi. Buning uchun tinglash va ijod qilishga moʻljallangan musiqa tavsifa etiladi. Bizda musiqa psixologiyasining mazkur sohasi deyarli oʻrganilmagan, negaki u ham medisina, ham musiqa sohalari boʻyicha jiddiy bilimga ega boʻlishni taqozo etadi.

XULOSA

Hozirgi paytda musiqa taʼlimi nazariyasi va amaliyotida taʼlimdagi «musiqiy cholgʻugacha» boʻlgan davrning zarurligi haqida koʻp gapirilmoqda. Bu vaqtda oʻquvchilarda usiz musiqa olamiga kirishning iloji boʻlmagan badiiy taassurotning minimum darajasi yigʻilib boradi. Bu haqda I.Gofman shunday degan: «Oʻquvchi har bir nota, sekvensiya, ritm, garmoniya va notalarda koʻrsatilgan barcha koʻrsatmalarni tushunib etmaguncha klaviaturaga intilavermasa, oʻziga juda yaxshi yordam bergan boʻladi, negaki chalish – ijrochi yaxshi biladigan narsani qoʻllar yordamida ifodalab berishdir»⁸. Tayyorlov davrining vazifasi nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatini, balki oʻz ichiga musiqiy eshitish, harakat va koʻrish tasavvurlarini olgan barcha ijodiy tasavvur turlarini aniq bir maqsad yoʻlida rivojlantirishdir. Bolalarni tayyorlov davri mashgʻulotlarida oʻqish, sheʼr yozish, rasm chizish, naqsh solish, qoʻshiqlarni sahnalashtirish va dramatisasiya oʻyinlari kabi badiiy faoliyatning turli sohalariga jalb etish muhimdir. Musiqiy asar talqinining xilma-xilligiga dinamika, agogika, artikulyasiya, pedalizasiya kabi ifodaviylikning ijrochilik vositalaridan foydalanish hisobiga erishiladi. Rivojlangan tasavvur sahna hayajonini engib oʻtishga va, umuman, musiqiy ijro sifatining yaxshilanishiga koʻmaklashadi. L.A.Barenboym uyda mashq qilganda oʻzini konsert zalida deb tasavvur qiluvchi pianinochini misol keltiradi. «U xayolan goʻyo auditoriya oldida butun dastur yoki alohida asarni ijro etishining oʻziyoq etarli va u nima ishonchli jaranglayapti, nima yoʻq, tinglovchi u yoki bu pʼesa ijrosiga qanday munosabatda boʻlayotganligini biladi. Ana shunday bir necha repetisiyadan soʻng u toʻla ishonch bilan sahnaga chiqishga tayyor boʻladi. Sahnaga chiqish uchun tayyorgarlik uslubini topgunga qadar pianinochi mutlaqo boshqa hissiyotni boshdan kechirardi: u yangi dastur bilan sahnaga chiqishga qoʻrqardi» Musiqachi-ijrochi ishi amaliyotiga aktyorlik usullarining joriy etilishi badiiy ijroning Yuqori darajasini egallashga yordam beradi, undagi psixik jarayonlarning mukammallashishiga koʻmaklashadi.

Ana shu tarzda, «tasavvur» mavzusi soʻngida shunday xulosa qilish mumkinki, musiqiy tasavvur faoliyati ichki eshitish jarayonida musiqiy-eshitish tasavvurlari sohasidan oʻtadi. Bilamizki, musiqachi uchun dunyoni «musiqiy» anglash xosdir, u atrof-muhitdan qancha koʻp taassurot olsa, ongida shunchalik koʻp obrazlar shakllanadi. Tasavvur ishi «fikrlash» yoki «badiiy» tarzda boʻlishi mumkin, lekin har ikki holda ham kompozitor, ijrochi, tinglovchi kundalik hayotdan farqlanuvchi boshqa dunyoga oʻtishni bilishi zarur. Xayoliy vaziyatlar tasavvurni rivojlantirish uchun turtki boʻlib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Jabborov A. Oʻzbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. T., 2004.
2. Ibrohimov O.A. Maqom va tasavvuf xususida GʻGʻ Rajabiyxonlik. T., 1994, 60-70 b.
3. Izard K. Emosii cheloveka. M., 1980.
4. Iskustvo boʻtʻ zdoorovoʻm. M., 1984.
5. Yoʻldosheva S. Oʻzbekiston musiqa tarbiyasi va taʼlimining rivojlanishi. T., 1985.
6. Kaykovus. Qobusnoma. T., 1994.

7. Karnegi D. Kak zavoevo'vat' družey i okazo'vat' vliyanie na lYudey. Kak vo'rabato'vat' uverennost' v sebe i vliyat' na lYudey, vo'stupaya publichno. Kak perestat' bespokoit'sya i nachat' jit'. M., 1990.

8. G'oziev E.G'. Psixologiya (YOsh davrlari psixologiyasi). T., 1994.

9. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: Darslik, I, II – kitob. T., 2002.